

# JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

**№ 2 (7) 2022** <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент</li><li>10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц</li><li>11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**TAYYORLOV G URUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA  
TAYYORLASHDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINI O'RNI**

*M.Zoirova-o'qituvchisi*

*O'.Burxonov-talaba*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tayyorlov guruxi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashda matematik bilimlarning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan

**Аннотация.** В статье обсуждается значение математических знаний в подготовке дошкольников к школе.

**Annotation:** In this article it is discussed the importance and role of mathematical knowledge of pre-school children for preparing school education

**Kalit so'zlar:** Bolalar, maktab, ta'lim, matematik, tarbiya, maktabgacha yosh, davlat talabi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni bolalardan turli tayyorgarlikni talab etasdi. Har bir bola o'ziga xos tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi ishini tashkil etishda bu xususiyatlarni hisobga olish lozi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini hayotga joriy etish keng ko'lamli ish bo'lib, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Davlat talablarda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun davlat tomonidan zaruriy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratiladi. Halq ta'limi vazirligi hamda joylardagi ta'lim — tarbiyaga tegishli bo'lgan tashkilotlar va muassasalar talablarni hayotta joriy etish yuzasidan o'z faoliyatini maqsadli yo'nalishda olib boradilar.

Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari har o'quv yilining 9-kunida “Ilk qadam” dasturda keltirilgan ta'lim mazmuni asosida nazorat mashg'ulotlari orqali tekshirib boriladi. 6 — 7 yoshdagi bolalarning maktabga tayyorlik darajasi ushbu davlat talablari, ko'rsatkichlari asosida bolalarni pedagogik-psixologik tashxis markazi mutaxassisleri tomonidan tekshiriladi.

Davlat talablari ko'rsatkichlariga erishish «Ilk qadam» dasturi asosida bolalarning 6 — 7 yoshga etgunga qadar amalga oshiriladi. Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari har o'quv yili yakunida dasturda keltirilgan talablar asosida nazorat mashg'ulotlari orqali tekshirib boriladi. 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi ushbu Davlat talablari ko'rsatkichlari asosida tekshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining tayyorlov guruhida bir haftada ikkita, bir yilda 72 ta mashg'ulot o'tkazish rejalashtiriladi. Mashg'ulotlar sentyabrdan may

oyining oxirigacha har biri 25 — 30 daqiqadan o`tkaziladi. Mashg`ulotlar kompleks rejalashtiriladi, ya'ni 2-3 dastur vazifasi olinadi.

Mashg`ulotlarda didaktik o`yinlar, ko`rgazmali materiallardan keng foydalaniladi.

Bolalar 30 daqiqa davomida mashg`ulotga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishlari lozim:

1. Dastur materialini yaxshi o`zlashtirib olishi;
2. Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlashi;
3. Mashg`ulot davomida bolalarning qiziqishini «ushlab turishga» e'tibor berishi;
4. Bolalar faoliyatini o`zgartirib turishga e'tibor berish;
5. Mashg`ulot o`rtasida jismoniy daqiqa yoki qisqa mazmunli harakatli o`yinlar o`tkazishni rejalashtirish:
6. Mashg`ulotda bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlariga erishish;
7. Bolalarning xilma — xil javoblarini rag`batlantirish;
8. To`g`ri javoblarga bolalarning diqqatini qaratib, butun guruh bolalari kerakli materialni o`zlashtirishlariga yordam berish;
9. Har bir bolaning mashg`ulotda mustaqil ishlashiga erishish;

Dastur materialini mashg`ulotlarga taqsimlashda bolalarning bilim va ko`nikmalariga ularning tayyorligiga e'tibor berish lozim.

Tarbiyachi o`z nutqiga alohida e'tibor berishi kerak. Maxcus termin va jumalarni to`g`ri qo`llay bilish katta ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Masalan: son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak. «qaysi son katta, qaysinisi kichik» deb so`raladi (qaysi raqam katta) - deyish mumkin emas).

Shartli o`lchovlardan foydalanishda «Bu erda necha o`lchov» emas, «Necha o`lchovni qo`yib olishga teng» — deyish kerak. Metodik ko`rsatmalarda uchraydigan ayrim maxsus terminlarni («klassifikatsiya», sonlarning miqdoriy tarkibi) tarbiyachi bolalarga tushuntirishda ishlatmasligi, tarbiyachining nutqi bolalarga tushunarli bo`lishi, tushuntirish hissi mazmunli, ifodali bo`lishi kerak. Mashg`ulotda hamma bolalarning aktiv ishtirok etishlariga erishish maqsadida har bir bolaning oldida tarqatma materiallar bilan bir qatorda signalli kartochkalar bo`lishi tavsiya etiladi. Agar o`rtog`ining javobi to`g`ri bo`lsa, yashil kartochka, noto`g`ri bo`lsa qizil kartochka, o`rtog`ining javobi uni qoniqtirmasa (o`rtog`ining javobini to`ldirmoqchi bo`ulsa) ko`k kartochkani ko`rsatishlari lozim. Bunda hamma bolalar o`rtoqlarining javoblarini diqqat bilan eshitishga harakat qiladilar, intizom ham buzilmaydi. («Men javob beray», «noto`g`ri» degan qichqiriqlar bo`lmaydi). Tayyorlov gruppasida ishni tayyorlashdan boshlash lozim. Tarbiyachi bolalarni 40 gacha sanashga o`rgatishni davom ettiradi, har bir sonni tegishli raqam bilan ifodalashga, har bir sonning qatordagi o`rnini aniqlashga, har bir son qaysi sondan keyin va qaysi sondan oldin

aytilishi, miqdoriy va tartib sonlarni farq qilishga, son elementlarining katta kichikligiga, yaqin-uzoq masofasiga, joylanishiga bogʻliq emasligini oʻrgatadi. Shunday qilib natural son qatori haqidagi muhim vazifa hal qilindi. Sanash, sanab ajratishda bolalar oʻyinchoqlarni, predmetlarni, geometrik figuralarni, tovushlarni, harakatlarni sanaydilar. Sanashni mashq qilishda bolalar predmetlarni sanab tushirib qoldirilishi yoki predmetni bir necha marta qayta sanamasligi kerakligini tushunib oladilar. Son sanash yoʻnalishiga bogʻliq emasligini, sanashda miqdor va tartib sonidan foydalanish mumkinligini tushunadilar.

Toʻplamlarni sanash orqali va bir-birining tagiga qoʻyib taqqoslash orqali aniqlash mumkinligini koʻradilar (masalan, yuqori qatorda 6 ta olma, pastki qatorda 7 ta nok bor. Ularni son shakli va raqim bilan belgilanadi). Bu tushunchalar oʻyinlarda mustahkamlanadi: «Adashma», «Xatoni tuzat», «Nimaning urni oʻzgardi?», Tovushlarni sanaydilar va uni sonli shakl raqam bilan koʻrsatadilar. Ayniqsa, 10 sonini raqam bilan yozishda alohida eʼtibor berish kerak. Buning uchun «0» ni tushintirish kerak. Flaneregrafga 10 ta kvadrat qoʻyiladi, birma — bir kvadrlarni olib qoʻyib nechta qoldi, - deb soʻrab turiladi, oxirgi kvadratni olib qoʻygach, bolalar «1 ta ham kvadrat qolmadi» - deyishadi. Bitta ham qolmaganligini «0» bilan belgilanadi. «0» sonini 1 sonidan nechta kam, qoʻshuv 1 soni «0» sonidan nechta koʻp? — deb soʻraladi. Buni aniqlab «0» sonining qatordagi oʻrnini tushunadilar.

Maktabgacha taʼlim muassasasi va maktabning boshlangʻich sinflarning amaldagi dasturlarni qiyoslash oʻrtasida maʼlum izchil ijobiy muvoffaqiyatli aloqa borligini koʻrsatadi. Shu bilan bir vaqtda bolalarni MTM da lugʻat boyligini yanada oshirish nutqning ifodaliligi, mantiqiyiligi ustidagi ish savom ettirildi. Bolalarni MTM da va maktab asosida oʻqitish izchilligi asosini tashkil etishda yagona nazariy yondashuvlar, dasturlar mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash imkoniyatlari hamda bolala bilimining pedagogik psixologik tuzulishi hisobga olindi.

Maktabgacha taʼlim muassasalarining tayyorlov guruhlarida mashgʻulot va dars mazmuni dasturlashtirilgan aniq tashkiliy vaqt jihatdan cheklanganlik, pedagogning yetuk roli ilmiy asoslangan oʻqitish metodi va usullaridan foydalanildi va shu singari umumiy xususiyatlari taʼlim shakllaridagi izchillik uchun zamin yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning taʼlim jarayoniga har tomonlama tayyot boʻlishi va ularning qaliy rivojlanishi oʻquv faoliyatining bir tekis va bosqichma-bosqich egallashinini taʼminlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Z.A.Raxmonqulova, U. Raxmonqulov, N. Qurbonova “Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirish”. “Bekinmashoq-plyus” T-2012
2. “Ilk va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yilgan Davlat talablari”. Toshkent . O’zRMTV . 2018 yil
3. “Ilk qadam” dasturi. Toshkent. O’zRMTV. 2018 yil.